

BO‘LAJAK AKTYORLARNI TARBIYALASHDA ETYUD VA ADABIY PARCHALAR USTIDA ISHLASH JARAYONLARI

Umidaxon Boltaboyeva

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak aktyorlarni tarbiyalashda etyud va adabiy parchalar ustida ishlash va bu jarayonda talabalarning tilidagi, talaffuzlaridagi ba’zi nuqsonlarni bartaraf etish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: aktyor, etyud, parcha, mashqlar, talaffuz, nuqson, ijrochilik mahorati, xatti- harakatlar

PROCESSES OF WORKING ON STUDIES AND LITERARY PIECES IN THE EDUCATION OF FUTURE ACTORS

Umidakhon Boltaboyeva

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: This article covers the issues of working on etudes and literary pieces in the training of future actors, and in this process, eliminating some defects in the language and pronunciation of students.

Keywords: actor, etude, piece, exercises, pronunciation, defect, performance skill, behavior

Bo‘lajak aktyorlar bilan parchalar ustida ishlashga o‘tar ekanmiz, avvalo, bo‘lajak aktyorlarni tarbiyalash jarayonini aniq uslubiy yo‘nalishlarda davom ettirishimiz, talabalarni yana ijodiy jarayonga kiritib olish uchun kursda ijodiy muhitni tiklab olishimiz zarur. Buning uchun talabalar bilan bo‘sh vaqtlarida qanday badiiy asarlar o‘qiganligi, san’at va adabiyotning turli yo‘nalishlaridagi yangiliklarni, ayniqsa she‘riyat olamida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lganligi to‘g‘risida suhbatlashib olishimiz kerak. She‘riyat borasida sahna nutqi o‘qituvchilari ham talabalarga turli tuman topshiriqlar beriishadi. Lekin aktyorlik mahorati o‘qituvchilari ham turli tuman topshiriqlar beriishlari shart. Holbuki Mannon Uyg‘ur aytganidek: “...she‘riy asarlar bilan ishlash va she‘riy tekstlarni o‘zlashtirib olish talaffuzda mavjud bo‘lgan nuqsonlarni bartaraf qilishning kalitidir”.¹

Ayniqsa ikkinchi kursdan boshlab talabalarning avtor tomonidan berilgan matnlarga duch kelishlarini inobatga oladigan bo‘lsak, bu ular uchun muhim talablardan biridir. Birinchi kursda etyudlardagi so‘zning kamligi talabalarning

¹ Sayfiddinov A. Adabiy asar va ijrochilik mahorati. Toshkent.FAN nashriyoti. 1980y. 74 -b.

tilidagi, talaffuzlaridagi, madaniyatidagi ba'zi nuqsonlarni ko'zga tashlanishiga yo'l qo'ymasada, ikkinchi kursga o'tib bu jihatlar yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi.

Ta'tildan keyingi suhbat jarayonida qaysidir talabaning mulohaza qilish doirasi kengayganligini, boshqa bir talabaning fikrlari avvalgidan qat'iyilashganini, boshqa bir talabaning esa umuman kitob varaqlab ham ko'rmaganini ko'ramiz. Qolaversa uzoq muddatli yozgi ta'tilda talabalarda hali endi shakllanib kelayotgan ko'nikmalarni yoddan chiqarish holatlari ham bo'lib turadi. Bunday suhbat tarzida o'tkazilgan mashg'ulotlarda ikkinchi kurs talabalariga kechinma san'ati maktabini egallashning navbatdagi bosqichida nimalarga e'tibor qaratishimiz lozim ekanligi, bundan keyin o'tiladigan mavzular va qiladigan ishlarimizning qisqacha annotasiyasi tushuntirilib o'tilishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularga fikrni qanday jamlash va qayerga yo'naltirish zarurligini anglab olishlari uchun tartki bo'ladi. Shuning barobarida, albatta qisqa muddat bo'lsa ham birinchi kursning oxirgi darslariga qaytish, o'tilganlarni xotirlash va albatta turli mashqlarni davom ettirish orqali ikkinchi kurs materialiga o'tish talabalar uchun osonroq bo'ladi. Shu bilan birga etyudlar ustida ishlash jarayoniga e'tiborni kuchaytirgan ma'qul. Sababi ikkinchi kursda avvalo nasriy asarlar, keyin esa pyesalardan olingan parchalarga etyud asosida yondashilgan holda ijodiy jarayon davom ettiriladi. Teatr san'ati maktabida etyudlar ustida ishlash jarayoni aktyorlik mahorati elementlarini mashqlar yordamida o'zlashtirishdan keyingi eng asosiy bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda aktyorlik mahoratining barcha elementlarini mantiq va izchillikni saqlagan holda, yagona tizimga bo'ysundirilgan holda qo'llanilishiga erishiladi. Bu bosqich esa o'z - o'zidan keyingi bosqichga - nasriy asarlar asosida parchalar va mukammal dramaturgiya ustida ishlash jarayoniga o'tishda yordam beradi. Ushbu jarayondan o'tmagan talaba kelajakda sahnada psixofizik hatti - harakat va baholashga qiynaladi. Bir so'z bilan aytganda, to'laqonli aktyor bo'lib shakllanmaydi. Bu jarayondan to'g'ri o'tmagan talaba kelajakda parcha va spektakllarda rol o'ynayotganda ham kechinma san'ati maktabi talabalarini bajara olmaydi. Keling, shu o'rinda etyudga to'htalib o'tamiz. Masalan, musiqachilarni tarbiyalash jarayonini oladigan bo'lsak, mashqlardan turli texnik imkoniyatlarni shakllantirish uchun foydalaniladi. Raqs san'atida ham aynan shunday. Shuningdek, sahna nutqi, vokal, plastika mashg'ulotlarida ham xuddi shunday. Etyud esa ijrochilik mahoratini mukammallashtiribgina qolmay, shu bilan birga ma'lum bir badiiy mazmunga erishishga ham yordam beradi.

Mashq etyudlari odatda qo'yilgan vazifaga javob tariqasidagi badihago'ylikka asoslangan bo'ladi. Bunda talaba o'zining hatti -harakatlari mantig'ida erkinlikka ega bo'ladi. Bu mantiq va izchillik har safar hatti - harakatlar kechayotgan shart - sharoitlardan kelib chiqqan holda yangidan yaratiladi.

Badihago'ylik xarakteridagi mashqlarda hatti - harakatlar bir martalik, ya'ni boshlang'ichlik xususiyatiga egadir. Mukammal etyudlarda esa boshqacha, ya'ni hatti

- harakatlar mantig'i muhrlanadi va takroriylik xususiyatini oladi. Etyudni har bir takrorlanishi jarayonimizda o'zimizga ma'lum bo'lgan faktlar yoki voqealar va hatti - harakatlarga xuddi birinchi marta sodir bo'layotgandek munosabatda bo'lish talab etiladi. Mashqlarda esa talabaning diqqati sahnaviy hatti - harakatning u yoki bu elementiga jalb etiladi. Etyudlar aktyorlik texnikasini egallash va sahnaviy ijod o'rtasida bog'lovchi vazifasini o'taydi. U aktyorning ilk bosqichlarda egallagan ko'nikmalarini mustahkamlab, uni keyingi bosqich jarayonlariga tayyorlab boradi.

Dastlab talabalar bilan etyudlar ustida ishlash jarayonida talabalardan o'ziga xos xarakterlilik, obraz qiyofasiga kirish talab etilmaydi. Chunki bu jarayonda ulardan "berilgan shart - sharoitda - men" sharti asosida ishlashlari talab etiladi. Ular o'z nomlaridan, o'zlariga tanish bo'lgan hayotiy sharoitlarda hatti - harakat qilishadi. Agar ish jarayonida xarakterlilik belgilari tabiiy ravishda tug'ilib qolsa, bundan qo'rqish kerak emas. Umumiy yo'nalishni saqlab turishga uringan holda, talabada tug'ilib qoladigan ijodkorlik tabiatini cheklab qo'yimaslik zarur.

Sahnaviy etyud - qarama - qarshiliklar asosiga qurilgan, o'zining rivojlanish mantig'iga ega bo'lgan voqealar va bu voqealar jarayonida ishtirokchilarning xulqi, o'zlarini qanday tutishi, hatti - harakatlari aks etgan sahnaviy ko'rinish. Bunday etyudlar ustida ishlash asosan birinchi kursning ikkinchi yarmidan boshlab mashq etyudlari bilan birgalikda olib boriladi. Ular mashq etyudlarining o'rnini almashtirishi emas, aksincha, ana shu mashq etyudlarining o'zagidan kelib chiqqan holda shakllanishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, sekin - asta shart -sharoitlar qatlami kengayib va boyib borishi, voqealar oydinlashtirilishi, syujet chizig'i paydo bo'lishi, ijodiy maqsad aniqlanishi, yetakchi hatti - harakat belgilab olinishi va ishtirokchilarning tanlangan shart - sharoitda o'zini tutish mantig'i hamda izchilligi saralab olinishi kerak.

Masalan, sahnaning o'rtasida turib sahna orqasidagi shovqin yoki tovushlarga quloq tutayotgan talaba holatidan, ya'ni, eshitish diqqati uchun mashq jarayonidan - yarim kechasi o'z hovlisiga devor oshib tushgan, uyda kim bor ekanligini aniqlashga harakat qilayotgan shaxs holatiga o'tishni olaylik. Birinchi holatda talabaga faqat shovqin yoki tovushlarni ilg'ab olish topshiriladi. Bu vazifa ko'ngildagidek bajarilgach, talabaga yangi vazifa beriladi. Inson qanday maqsadda va qanday vaziyatlarda shu harakatlarni amalga oshirishi mumkin: agar u o'z uyida bo'lsa, nima uchun, qanday sharoitda, nega aynan yarim kechasi kelyapti, qayerdan kelyapti, maqsadi qanday, uyda biror kishining bo'lishi uning uchun yaxshimi yoki yomonmi - shu kabi savollar yordamida talabaning tasavvuri uyg'otib ko'riladi. Agar talabaning ijrosi ichkaridagi uyda dam olayotgan ota - ona yoki biror yaqinlariga xalaqit bermasdan o'z xonasiga kirib ketishga qurilgan bo'lsa, bu jarayon unchalik qiziqarli emas, chunki shart - sharoitning keskin emasligi, ehtiyotkorlik darajasining pastligi faol psixofizik hatti - harakatni amalga oshirishiga turtki bermaydi. Agar ijrochi,

masalan, ish qidirib boshqa yurtlarga ketib qolgan, ishi yurishmay ortiga qaytgan bo'lsa, u hech vaqosiz qaytayotganidan mahalladoshlarining ko'ziga ko'rinishga uyaliq, yarim kechasi hech kimga bildirmasdan o'z uyiga kirib kelishga qaror qilgan odam bo'lsa, bunday sharoitda uning tovushlarga quloq tutishining o'zi juda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu vaziyatda endi hatti - harakatlarning faolligi ortadi, ehtiyotkorligi kuchayib boradi. Shu yo'l bilan dastlab oddiygina amalga oshirilgan hayotiy hatti - harakat badiiy to'qima yordamida ichki, fikriy asos va oqlamalarga ega bo'ladi. Shuning uchun ham hatti - harakat o'zgacha xarakter, o'zgacha ma'no va mazmun kasb etadi.

Etyudlarni chuqurlashtirishda har vaqt ham ham voqealar rivojini murakkablashtirish yo'lidan borish shart emas. Aksincha, faktlari unchalik ko'p bo'lmagan oddiy va hayotiy syujet qurilishi yo'lidan borgan ma'qulroq. Shundagina talaba turli tuman filmlar yoki spektakllarda ko'rgan syujetlarga ko'r - ko'rona yopishib olmaydi, mashq etyudlaridan sahnaviy etyudlarga o'tish jarayoni unda tabiiy, silliq va unini zo'riqtirmasdan amalga oshiriladi. Aks holda talabada qolipga tushib qolish holatlari paydo bo'ladi.

Etyudlarning paydo bo'lishi va shakllanishi turli vaziyatlarda tug'ilishi mumkin. Oddiy mashqlar - tasavvurdagi buyumlar bilan hatti-harakat qilish yoki tana mushaklarini bo'shatish mashqlari ham kelajakda mukammal etyudlarga yoki shart - sharoitning o'zgarishi, so'z tug'ilishi va yangi voqeaning boshlanishini qabul qilish uchun mo'ljallangan mashq etyudlari darajasiga yetishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boltaboeva U. Aktyorning so'z ustida ishlashi, so'z harakatligiga erishish omillari maqolasi. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal VOLUME 4 ISSUE 1 / FEBRUARY 2023
2. Boltaboeva U. Nutq san'atining uziga xos xususiyatlari: muammo va yechimlar //Oriental Art and Culture. - 2020. - №. I (2).
3. Boltaboeva U. Using Oral Folk Art Methods in Improving Speech Technology //Eastern European Scientific Journal. - 2019. - №. 1
4. Boltaboyeva U., Rakhmonova N., Usmonov Sh. Characteristics of speech Art: problems and solutions //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. - 2020. - T. 10. - №. 4. - b. 559-567.
5. Boltaboeva U., O'g'ilxon Odilova, MUSIQIY TEATR AKTYORLARINING SAHNADA OBRAZ YARATISHIDA NUTQINING IFODAVIYLIGI VA OVOZNI YO'LGA QO'YISH MASALALARI maqolasi. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal VOLUME 4 ISSUE 1 / FEBRUARY 2024
6. Boltaboeva U., AKTYORLIK MAHORATIDA MEZANSSENIROVKA ELEMENTINING SHAKL VA USULLARINI O'RGATISHNING MAQSADLARI

VA BOSQICHLARI maqolasi. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal VOLUME 5 ISSUE 3 / JUNE 2024, 671-673b.